


# SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI

>>

RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY JURNALI



2024

7-JILD  
2-SON  
13-FEVRAL



## «BEST PUBLICATION»

*Ilmiy-tadqiqotlar markazi ©*

**“SO‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI”  
ILMIY-USLUBIY JURNALI**

## MATERIALLARI TO‘PLAMI

13-Fevral, 2024-YIL

7-JILD 2-SON

O‘ZBEKISTON

2024

<i>Отарбаев Жумабек Базарбаева Маликабану</i>	
<b>PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDAGI BOSHLANG'ICH TASHKILOT YETAKCHILARINING O'RNI VA VAZIFALARI. 'YOSHLAR ISTIQBOLIMIZ VA KELAJAGIMIZ POYDEVORI'</b> <i>Yo'ldashova Shohsanam Baxriddinovna J.Jumayev Y.Turemuratov</i>	<b>87</b>
<b>ГИДРАВЛИКА ПОТОКА ПРИ РЕГУЛИРОВАНИИ РУСЛА ДВУСТРОТОННИМИ ДАМБАМИ</b> <i>Ш.Шониёзов М.Юнусова Шоймуродов Шахриёр Хидиров Фарход</i>	<b>90</b>
<b>QISHLOQ XO`JALIGIDA CHORVACHILIKNI TARMOG`INI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI</b> <i>Boltayeva Shaxnoz Bebudovna Qurbanov Jaxongir Muxtorovich Nematiiloyev Shaxriyor Azimovich</i>	<b>94</b>
<b>AQLLI SHARTNOMALAR VA ULARNING QO'LLANISHI</b> <i>Musayev Navruzjon Eshberdi o'g'li</i>	<b>98</b>
<b>XALQARO INVESTITSIYA, FOND BIRJALARI VA HUQUQIY MADANIYAT</b> <i>Musayev Navruzjon Eshberdi o'g'li</i>	<b>103</b>
<b>O'ZBEKİSTONDA YANGI BAHOLASH TİZİMİ SUMMATIVI</b> <i>Davlatov Akrom Olimovich</i>	<b>109</b>
<b>FUQAROVIY VA IQTISODIY HUQUQIY MUNOSABATLARDA ZARAR TUSHUNCHASI VA UNING O'RNI</b> <i>Abdurasulov Abror Akmal o'g'li</i>	<b>112</b>
<b>RAQAMLI TRANSFARMASSIYA JARAYONLARINI BOSHQARISHDAGI MUHIM MASALALAR</b> <i>Axmadullayev Abzaldin Abduhamid o'g'li</i>	<b>117</b>
<b>ТОШКЕНТ ШАХРИ ҚИРГОҚ БҮЙИ ҲУДУДЛАРИНИ РЕЖАЛАШТИРИШНИ ТАШКИЛ ҚИЛИНИШИНинг ҲОЗИРГИ ҲОЛАТИ</b> <i>Турдалиева Дилфузада Равшан қизи</i>	<b>121</b>
<b>TIBBIY TA'LIMDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM KONSEPSIYASI</b> <i>Buzulayho Haydarova</i>	<b>128</b>

## QISHLOQ XO`JALIGIDA CHORVACHILIKNI TARMOG`INI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

**Boltayeva Shaxnoz Bebudovna**

*BuxDu katta o`qituvchisi*

**Qurbanov Jaxongir Muxtorovich**

**Nematilloyev Shaxriyor Azimovich**

*BuxDu, "Agrobiznes va investitsion faoliyat"ta`lim yo`nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada qishloq xo`jalikni rivojlanirishda chorvachilikni ahmiyati, bu sohani rivojlanirishda davlatlatimizda olib borilayotgan haqida fikr-mulohazalar bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *chorvachilik, identifikasiya, klaster, ilmiy tahlil, Veterinariya statistika, samaradorlik, texnologiya.*

Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi, xalq turmush darajasining muttasil usib borishi xozir chorvachilikni yanada tezrok yuksaltirish vazifasini birinchi o`ringa qo`ymoqda.

Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida qishloq xo`jaligi, xususan chorvachilik muhim ahmiyat kasb etadi. Mamlakatimizda aholining chorvachilik mahsulotlariga bo`lgan ehtiyojini qondirish, bozorlarda gusht, sut, tuxum, Baliq va boshqa mahsulotlar serobligini ta`minlashga ustuvor vazifalardan biri sifatida yondashilmokda.

Chorvachilik - mamlakat qishloq xo`jaligining muhim tarkibiy qismidir. Chorvachilik tarmoqlarining maqsadga muvofiq, samarali joylashtirilishi respublikada Mehnat taqsimotining ijobiliy hal etilishiga bevosita ta`sir etadi. Xudud-larning tabiiy, iqtisodiy sharoitlarini xamda bozor talablarini e`tiborga olgan xolda chorvachilikning qoramolchilik, qo`ychilik, Baliqchilik, asalarichilik, ondatrachilik tarmoqlarining joylashtirilishi va rivojlanirilishi zarur. Chunki bu tarmoqlarda oziq-ovqat va qayta ishslash sanoati korxonalari uchun gusht, sut, jun, teri, asal va boshqa mahsulotlar etishtiriladi.

Chorvachilikning rivojlanishi natijada sanoat tarmoqlarining rivojlanishi ham ta`minlanadi, chorvachilik tarmoqlarida inson salomatligi uchun zarur, oqsil moddalarga boy bo`lgan turli xildagi mahsulotlar ham etishtiriladi. Respublikada aholi jon boshiga go`sht, sut etishtirish va iste`mol qilish tibbiy me`yorlar darajasidan past. Chorvachilik tarmog`ining bugungi holati inson organizmi uchun zarur miqdor va me`yorlarni ta`minlab bera olmaydi. Shuning uchun respublika hukumati mamlakatning barcha sohalarida chorvachilikni rivojlanirishga qaratilgan yirik dasturlar ishlab chiqib, ularni amaliyotga tatbiq etish buyicha qator chora-tadbirlarni amalgalashmoqda.

Hujjatga asosan, O`zbekistonda hayvonlarni identifikasiya qilish, ro`yxatga olish va kuzatish tizimini joriy qilish quyidagi ikki bosqichda amalga oshiriladi:

1- bosqichda – 2023-2024 yillarda chorvachilikka ixtisoslashtirilgan 25 ta tumanda (ro`yxat bo`yicha). Bunda mazkur tumanlarda hayvonlarni identifikasiya qilish, ro`yxatga olish va kuzatish tizimini joriy qilish bepul amalga oshiriladi;

2- ikkinchi bosqichda – 2025-2026 yillarda respublikaning qolgan tumanlarida.

25 ta tumanda chorvachilik klasterlari quyidagi yo`nalishlar bo`yicha tashkil etiladi:

- go`sht va sut maxsulotlarini etishtirish, shuningdek, axolidan yig`ib olish, qayta ishlash va tayyor mahsulot shaklida realizatsiya qilish;

- tayyor ozuqa em mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularni aholiga qulay bo`lgan hududlarda sotish shoxobchalarini tashkil etish;

- aholi xonadonlariga mahsuldor naslli mollarni etkazib berish;

- chorva mollarini so`yish kushxonalari, terilarni qabul qilish va qayta ishlash quvvatlarini ishga tushirish;

- terini qayta ishlovchi korxonalar bilan birgalikda kooperatsiya asosida teridan tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish

Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo`mitasi mazkur sohada mas`ul organ hisoblanadi. Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo`mitasi huzurida davlat muassasasi shaklida hayvonlarni identifikasiya qilish, ro`yxatga olish va kuzatish markazi tashkil etiladi. Qo`mita huzurida hayvonlar bo`yicha yagona milliy ma`lumotlar bazasi tizimi xamda elektron axborot almashinushi tizimi yaratiladi

Keyingi yillarda chorvachilikning asosiy tarmog`i bo`lgan qoramolchilikni rivojlantirishga bo`lgan e`tibor yuqori bo`lmoqda.

Respublikada qoramollar soni yildan-yilga oshishi aholini go`sht va sut mahsulotlariga bo`lgan talabini qondiradi, sanoatni xom ashyo bilan ta`minlaydi.

Hozirgi kunda qoramolchilik yunalishidagi naslchilik xo`jaliklari soni 412 taga etkazilib, ularda 99,2 ming bosh yuqori nasldor qoramollar parvarish qilinmoqda .

Qoramollarning naslini va maxsuldarlik imkoniyatlarini oshirishda naslchilik - selektsiya ishlarida ham ijobjiy o`zgarishlarga erishilmoqda. Zavod tipidagi naslchilik fermer xo`jaliklari va korxonalarida import qilingan golshtinofriz, simmental, shvits, qora-ola va qizil zotli mollar hisobidan shakllanmoqda.

Chorvachilikni rivojlantirish qishloq xo`jaligi oldida to`rgan birinchi darajali vazifalardan xisoblanadi. Bu vazifani muvaffaqiyatli hal etish uchun quyidagi kompleks tadbir-choralari ishlab chiqilgan:

- chorvachilikning mustahkam em-xashak bazasini barpo qilish va em-xashakdan ratsional foydalanish;

- barcha turdagagi chorva mollarini va parrandalarni ko`paytirish;

- podalarning mahsuldarligini oshirish va mollarni sanoat texnologiyasi asosida boqishga moslashtirish maqsadida chorvachilikda naslchilik ishlarini yaxshilash;

- xizmat ko`rsatish punktlari tarmog`ini kengaytirish xisobidan veterinariya xizmatlari va sun`iy kochirish xizmatlaridan foydalanishni yaxshilash;

- shaxsiy yordamchi, dexkon va fermer xo`jaliklariga zotdor mollarni sotish buyicha kimoshdi savdolarini tashqil etish;

Chorvachilik klasterlariga “Chorvachilik sohasini rivojlantirish” loyihasi doirasida 60 mln AQSH dollari miqdorida kreditlar ajratish rejalashtirilmoqda.

Ularga paxta va g`alla ekin maydonlarini qisqartirish hisobiga har bir tumanda kamida 100-150 hektar maydon ozuqabop ekinlar ekish uchun ajratiladi.

2023 yil 1 dekabrdan boshlab chorvachilik xo`jaliklari o`z extiyoji uchun import qilgan nasldor qoramollarga hisoblangan QQSn Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo`mitasining kafolati asosida 180 kun ichida to`lab berish tizimi joriy etilishi kerak.

2023 yil 1 sentyabrdan boshlab 2025 yil 31 dekabrga qadar davlat tomonidan quyidagi miqdorlarda subsidiya ajratiladi:

- chorvachilik maxsulotlari etishtiruvchi xo`jaliklarga –xorijiy davlatlardan import qilingan nasldor qoramolning har bir boshiga 2 mln so`m, nasldor qo`y va echkining xar bir boshiga 400 ming so`m miqdorida;

- parrandachilik xo`jaliklariga – har bir bosh 1 kunlik nasldor jo`jani import qilish bilan bog`liq xarajatlarning 15 ming so`mini qoplash uch

Qorovulbozor tumanidagi “Buxoro Agrokaster Chorva” MCHJ da naslli qoramol zotlarini ko`paytirish, xalqimiz dasturxonini sifatli go`sht va sut mahsulotlari bilan ta`minlash va eng asosiysi chorvachilikda mahsuldor naslli mol zotlarini ko`paytirish maqsadida bir qancha amaliy ishlar olib borilmoqda. 2021 yilda ishga tushirilgan mazkur chorvachilik koppleksi zamon talablari asosida jihozlangan bo`lib, viloyatimizdagagi yirik chorva kompleksilaridan biridir.

Joriy yilda ushbu chorvachilik kompleksi navbatdagi investitsion loyixalarni amalga oshirishga kirishdi. Naslli qoramollar, urug`lar va embrionlar sohasida nemis genetikasi eksportiga ixtisoslashgan soxada 30 yildan ortiq tajribaga ega bo`lgan Germaniyaning Zve Zuchtvieh-Export GmbH korxonasi va jamiyat mutasaddilari bilan o`tkazilgan muzokaralar va o`rganishlar natijasiga ko`ra tuzilgan shartnomaga ko`ra AT “Xalq bank” Buxoro viloyat filiali tomonidan qiymati 1,3 mln AQSH dollari miqdoridagi xorijiy kredit liniyasi resurslari hisobiga shved, simmental va qizil Daniya zotli jami 489 bosh qoramollar sotib olish jaryonlari boshlandi.

Hozirda olib kelingan naslli qoramollar chorva majmuasida sohada chuqur bilim, tajriba va malakaga ega mutaxassislar, zootexniklar nazorati ostida hudud iqlim va ozuqa sharoitlariga moslashtirish jarayonida parvarish etilmoqda.

Tan olish kerak, naslli chorvachilikni rivojlantirishga qaratilagan islohotlarga to`sinq bo`layotgan ba`zi bir omil va kamchiliklar ham yo`q emas. Chunonchi, ayrim xo`jaliklarda naslli chorvachilikni rivojlantirish va chorva mollarini boqishda avvalo ular uchun zarur bo`lgan ozuqa bazasida etishmovchiliklar kuzatilmoqda. Shuningdek,

naslli chorva mollarini mintaqamiz iqlim sharoitiga mos kelishi, agarda mos kelmagan taqdirda etarlicha shart-sharoitni yaratish uchun axoli va fermer xo`jaliklaridatalab darajasida sifatli va tezkor veterinariya xizmatlari ko`rsatilishi zarur. Bundan tashqari, sigir va tanalarni sun`iy urug`lantirish orqali chorva mollari naslini yaxshilash, ya`ni samaradorligini oshirish bo`yichazaruriy bilim va ko`nikmalarlarning yo`qligi, moddiy jihatdan resurslarning kamligi yoki umuman yo`qligi ham soha rivojiga to`sinq bo`layotgan muammolardan sanaladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Болтаева, Шахноз. "The role of Agrokultural marketing in the development of Uzbekisnan." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 1.1 (2020).p. 3
2. Boltayeva, Shahnoza Bebudovna, and Miraziz Furkat ugli Mirkhodjayev. "LEGAL REGIME OF SMART CONTRACTS IN FOREIGN ECONOMIC ACTIVITY." Development and innovations in science 1.1 (2022): 108-114.
3. Таирова М. М., Болтаева Ш. Б. Роль агромаркетинга в развитии экспорта плодоовоощной продукции Узбекистана //Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – 2014. – №. 8-1. – С. 157-159.
4. Рустамовна, Турабова Хулкар. "АГРОБИЗНЕСНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ."
5. Рустамовна, Турабова Хулкар. "АГРОБИЗНЕСНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ."
6. Turobova, Hulkar, Feruza Axmedova, and Malika Buranova. "Foreign experiences in organizing cooperation relations in Uzbekistan." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.3 (2021): 2397-2400.
6. Boltayeva, Sh. B. "DEVELOPMENT OF AGRICULTURE ROLE OF MARKETING." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.5 (2023): 428-431. INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE SPHERE OF DOMESTIC AND INTERNATIONAL TOURISM" Econom22ics, no. 1 (48), 20
7. Болтаева, Шахноз. "WASTE PROBLEM, SECOND LIFE OF WA DEVELOPMENT OF AGRICULTURE ROLE OF MARKETING." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 45.45 (2024).21,
8. Болтаева, Шахноз. "Modern Directions of Small Business and entrepreneurship Development in Uzbekistan." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 20.20 (2022).p
9. Болтаева, Шахноз. "The role of Agrokultural marketing in the development of Uzbekisnan." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 1.1 (2020).p. 3